

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O.E.Toshmurodov

Yosh kurashchilarning harakat ko'nikmalarini shakllantirishda tayanch-harakat apparati harakatchanligini rivojlantirish metodikasi 107

J.M.Hamrakulov

"Tyutorlik faoliyati asoslari" fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash..... 114

D.S.Abduqodirov

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik-pedagogik jihatlari 117

R.A.Jo'rayeva, M.A.Hojiyeva

Bo'lajak filolog-mutaxassislarning lingvistik kompetentligini rivojlantirish va takomillashtirish – malakali mutaxassislar tayyorlash omili 120

G.I.Otaboyeva, Z.G.Mamataliyeva

Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda texnologik yondashuv 123

O.X.Rashidova

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'limini muammoli vaziyatlar asosida tashkil etish..... 126

Z.D.Rasulova

Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantishda ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish 131

Н.Э.Юлдашева

Эффективные формы и методы развития профессиональной компетентности учителей физического воспитания 136

Е.М.Любимова, А.И.Кудряшова, М.К.Ахмадалиева, К.Д.Патидинов

Обучение цифровым инструментам и ресурсам студентов - бакалавров педагогического образования 139

Sh.G'.Xasanov

Bo'lajak o'qituvchilarning kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish modeli 145

M.I.Ne'matov

Bo'lajak o'qituvchilarda etnopedagogik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari..... 152

I.X.Turdiboyev

Bo'lajak kimyo o'qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash bo'yicha ayrim mulohazalar 160

IQTISODIYOT**X.X.Бозаров**

Совершенствование научно-методических основ развития малого бизнеса в условиях инновационной экономики 164

FALSAFA**N.S.Badriddinova**

XVII – XVIII asrlarda Movarounnahrda falsafiy va tasavvufiy qarashlar 171

B.B.Dehqonov

Bahouddin Naqshbandning inson kamoloti haqidagi qarashlari..... 175

O.R.Sultonova, S.S.Sadullayev

Qishloq yoshlarini iqtisodiyot tafakkurini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning o'rni va ahamiyati 180

I.J.Jabborov

Shayx Najmiddin Kubro ruboilyarida ishq falsafasi 184

G.N.Navro'zova

Xoja Ahror Valiy o'zlikni anglash xususida: qiyosiy-falsafiy tahlil 187

M.E.Xujamov

Yangilanayotgan O'zbekistonda ilmiy-axloqiy qadriyatlarning barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni..... 191

F.A.Ibroximov

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda aholi huquqiy madaniyatining ahamiyati 197

**УО'К: 37.013 (075.8)**

**TALABALARING KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTISHDA TA'LIM
TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH**

**ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В
РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ**

**EFFECTIVE USE OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF
CREATIVE COMPETENCE OF STUDENTS**

Rasulova Zilola Durdimurotovna 

Buxoro davlat universiteti doktoranti pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy ta'limgan texnologiyalari, ular asosida ta'limgan jarayonlarini qurish masalalari muhokama qilingan. Zamonaviy ta'limgan jarayonlarini barpo etish bilan birga talabalarda kreativ kompetensiyalarni qaror toptirish kabi dolzarb vazifalarni amalga oshirish jarayonlari ifodalangan. Kreativlik tushunchasining mohiyati, talabalarni kreativ shaxs sifatida tarbiyalashning pedagogik aspektlari o'z ifodasini topgan. Pedagog olimlar tomonidan ta'limgan texnologiyalariga berilgan ta'riflar, pedagogik, psixologik jihatdan nazariy qarashlari bayon etilgan. Maqsad ta'limgan texnologiyalaridan samarali foydalangan holda talabalarning mustaqilligini, ijodkorligini oshirishdir. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining mohiyatini anglash va hamkorlikka asoslangan ta'limgan jarayonini tashkil etish, talabalarning jamoaviy faoliyatini, ularni amalga oshirish jarayonida harakatlarni samarali muvofiqlashtirish va chuqurlashtirishni yo'lg'a qo'yish muhimdir. Ta'limgan texnologiyalari o'qitish jarayonining ishtiroychilarini o'zaro hamkorlikda bilim olish, kreativ shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarura ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Talabalarda jamoa bilan ishslash ko'nikmalarini shakllantirish, guruuh-guruuh bo'lib ishslashga o'rgatish, guruuhlar bilan ishslashning ular uchun qulayligini his qildirish hamda ularning o'quv jarayoniga psixologik moslashuvchanligini ta'minlashga qaratilgan. Hamkorlikda o'qitishni amalga oshirish strategiyalari va guruuhlar bilan ishslashning tizimli strukturasi ochib berilgan.

Аннотация

В статье рассматриваются современные образовательные технологии и вопросы построения образовательного процесса на их основе. Наряду с становлением современных образовательных процессов выражаются процессы реализации текущих задач, таких как определение творческих компетенций у студентов. Выражены сущность понятия творчества, педагогические аспекты воспитания учащихся как творческих личностей. Описаны определения образовательных технологий, данные учеными-педагогами, педагогические и психологические теоретические взгляды. Цель – повысить самостоятельность и креативность учащихся за счет эффективного использования образовательных технологий. Важно понять суть технологии кооперативного обучения и организовать учебный процесс на основе сотрудничества, наладить эффективную координацию и углубление действий в процессе коллективной деятельности учащихся. Показано, что образовательные технологии необходимы для создания благоприятных педагогических условий для того, чтобы участники учебного процесса во взаимном сотрудничестве приобретали знания, развивались как творческая личность. Оно направлено на формирование у студентов навыков командной работы, обучение их работать в группах, создание комфортной работы в группах, обеспечение их психологической адаптивности к учебному процессу. Раскрыты стратегии реализации кооперативного обучения и системная структура работы с группами.

Abstract

The article discusses modern educational technologies and issues of building educational processes based on them. Along with the establishment of modern educational processes, the processes of implementation of current tasks, such as the determination of creative competencies in students, are expressed. The essence of the concept of creativity, the pedagogical aspects of educating students as creative individuals have been expressed. Definitions of educational technologies given by pedagogic scientists, pedagogical and psychological theoretical views are described. The goal is to increase students' independence and creativity by effectively using educational technologies. It is important to understand the essence of cooperative learning technology and to organize an educational process based on cooperation, to establish effective coordination and deepening of actions in the process of collective activities of students. It has been shown that educational technologies are necessary to create favorable pedagogical conditions for the participants of the teaching process to acquire knowledge in mutual cooperation, to develop as a creative person. It is aimed at forming students' teamwork skills, teaching them to work in groups, making them feel comfortable working with

groups, and ensuring their psychological adaptability to the educational process. Strategies for implementing cooperative learning and the systematic structure of working with groups are revealed.

Kalit so'zlar: kreativlik, mustaqil, tanqidiy fikrlash, zamonaviy ta'lif jarayoni, ta'lif texnologiyalari, hamkorlikda o'qitish texnologiyalari, intellekt, aqliy salohiyat, shaxslararo munosabat, guruhlar bilan ishlash, kognitiv faoliyat.

Ключевые слова: креативность, самостоятельность, критическое мышление, современный образовательный процесс, образовательные технологии, технологии кооперативного обучения, интеллект, умственные способности, межличностные отношения, работа в группах, познавательная деятельность.

Key words: creativity, independent, critical thinking, modern educational process, educational technologies, cooperative learning technologies, intelligence, mental capacity, interpersonal relations, working with groups, cognitive activity.

KIRISH

Globallashuv sharoitida ta'lif bo'lajak pedagoglarni har tomonlama voyaga yetkazish, ularning mustaqil, tanqidiy, kreativ fikrlash ko'nikmalarini tarbiyalashga yo'naltirilishini talab qilmoqda. Talabalar qiziqarli, ajoyib g'oyalarga ega bo'lsalarda ularni yuzaga chiqarishlarida sustkashliklarga duch kelmoqda, bu muammo esa pedagoglarning ta'lif jarayonlaridagi bir xillik tamoyiliga tayanib qolganliklaridadir. Eng avvalo zamonaviy ta'lif jarayonini qurish va uni talaba ongiga chuqur singdirish bugungi kun pedagoglari oldiga qo'yilgan dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5847-sod Farmonida O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lifni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil, kreativ fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'lifni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lif texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida bir qancha ustuvor vazifalar belgilab qo'yilgan [1]. Ushbu vazifalarning tub mohiyati xalqaro ta'lif standartlariga javob beradigan ilg'or ta'lif texnologiyalarini ta'lif jarayonlariga munosib tadbiq qilish keraklilagini belgilaydi.

Ta'lif texnologiyalari o'qitish jarayonining ishtirokchilarini o'zaro hamkorlikda bilim olish, kreativ shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zaruratini ifodalaydi. Shaxsda kreativ bilimlarning rivojlanishining mohiyatini anglash uchun "kreativlik" tushunchasiga e'tiborni qaratish darkor. Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyatidir. Shaxsnинг kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi [3, 72]. Ken Robinsonning fikriga ko'ra kreativlik – o'z qiymatiga ko'ra original g'oyalalar majmuidir. Bunday original g'oyalarni yuzaga chiqishi uchun shaxs intellektual aqliy salohiyatini ishga solishi lozim. Demak kreativlikning mohiyati shundaki, intellekt insonning aqliy salohiyati deb tasavvur qilsak, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo'naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyatini hisoblanadi. Talabalar aqliy salohiyatini erkin ishlata olishlari uchun esa albatta pedagoglar dars jarayonlarida ta'lif texnologiyalaridan munosib ravishda foydalanishlari maqsadga muvofiq sanaladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ta'lif texnologiyasining pedagogik, psixologik asoslarini O.Roziqov., C.Og'ayev., M.Mahmudov va B.Adizovlarning izlanishlarida ko'rish mumkin. Olimlarning nuqtai nazariga ko'ra ta'lif – boshqariladigan jarayon bo'lib, uning natijasi ko'p jihatdan tayyorlangan didaktik loyihaga bog'liq [4, 10]. V.P.Bespalko pedagogik texnologiyani amaliyatga tadbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi deb ta'riflaydi hamda asosiy diqqatni o'quv pedagogik jarayonni oldindan loyihlashga qaratadi. N.F.Talizina esa pedagogik texnologiyaning fan va amaliyat oralig'ida muayyan tamoyillarni olg'a suruvchi metodlar ishlab chiqaruvchi, ularni izchil qo'llash kabi masalalarni hal etishga yo'naltirilgan mustaqil fan bo'lishi lozimligini qayd etgan [5, 13]. MDH olimlari tomonidan ta'lif texnologiyasiga bir qancha ta'riflar berilgan. Jumladan, V.M.Shepel texnologiya – biror ishda, mahoratda, san'atda qo'llaniladigan usullar, yo'llar yig'indisi deya ta'riflaydi. B.T.Lixachev pedagogik texnologiyani o'qitishning, ta'lifning shakllari, metodlari, uslublari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig'indisini belgilovchi psixologik, pedagogik tartiblar majmuasi desa, I.P.Volkov rejalashtiriladigan ta'lif natijalariga ta'lif natijalariga erishish jarayoni

PEDAGOGIKA

deydi. M.Choshanov ta'lrim texnologiyasi — didaktik tizimning tarkibiy jarayonli qismi deya ta'rif beradi [6, 9].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Oliy ta'lrim muassasalari o'quv jarayonlarini modernizatsiyalash, ta'lrim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ilg'or ta'lrim texnologiyalar hamda o'qitish shakllarini joriy etish bilan ifodalanadi. Shu o'rinda ilg'or ta'lrim texnologiyalari o'qituvchining tizimli faoliyati sifatida talqin qilinadi va talaba o'quv faoliyatini o'tkazish va tashkil etishda qulaylik bilan bu jarayonning har ikki tomoni uchun shartdir. Texnologiyadan eng samarali foydalanish uchun, uning nazariy asoslanishini, kontseptualligini yaxshi tushunish talab qilinadi.

Bir so'z bilan aytganda ta'lrim texnologiyasi — bu algoritm o'qituvchi va talabaning maqsadli qo'shma harakatlari, mo'ljallangan natijaga erishishni kafolatlaydi. Talabalarda erkinlik hissini uyg'otishning samarali usuli, bu — pedagogik hamkorlikni yo'lga qo'yish hisoblanadi. Hamkorlikda olib borilgan ta'lrim-tarbiya jarayoni hamisha kutilgan samarani beradi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining asosiy g'oyasi talabalarni turli o'quv vaziyatlarda hamda ularning yangi g'oyalarni yuzaga chiqarishda faol harakatlariga shart-sharoitlar yaratish bilan ifodalanadi. Hamkorlikning asosiy sharti shundaki, talabalar guruh-guruh bo'lib ishlaydilar. Guruhlar bilan ishlashning talabalar uchun qulayligi shundaki, guruhlarni tuzishda talabalarning jarayonga psixologik moslashuvchanligiga e'tibor qaratiladi. Talaba o'zini erkin va mustaqil tutishi uchun avvalo jarayonga moslashish maqsadga muvofiqdir, bu esa aynan hamkorlikda o'qitishda amalga oshiriladi.

Guruhlarga bo'lish jarayonida ham pedagogning mahorati as qotadi, ya'ni har bir talaba har xil dunyoqarashga, xarakterga, bilimga ega bo'ladi. Shu o'rinda talabalarning bunday xarakterli xususiyatlari teng taqsimlanib guruhlarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bunday shakllangan guruhda past bilimga ega bo'lgan, yoki shunday talabalar borki, ularning tafakkuri original g'oyalarga to'la bo'lishi mumkin, ammo ularda qo'rquv, g'oyalarni yuzaga chiqara olmaslik hissi yuqori bo'lishi mumkin. Ana o'shanda bunday shakllangan guruh ular uchun mustaqil yer maydoniga aylanishi mumkin. Ya'ni hamkorlari bilan fikrlarini bo'lishib, taqdim qilishlari mumkin. Masalan: hamkorlikda o'qitish texnologiyalaridan eng afzali bu "Komandada o'qitish"dir. Komandada o'qitish ko'proq musobaqa tarzida bahs-munozaralar qilinib talabalarni yanada qiziqtiradi, talabalar o'sha jarayonning ichiga chuqur kirib borishlariga yo'l ochadi.

Djonson D., Djonson P., Djonson-Xolubek Elar o'z izlanishlarda hamkorlikda o'qitish bo'yicha quyidagi fikrlarni bildiradilar. Yodda tutingki, hamkorlikdagi ta'lrim ishtirokchilari o'rtasida o'zaro bog'liqlikning bir necha turlari mavjud. a) yagona maqsad, vazifaga bog'liqlik, hammaga tushunarli va hal qilish mumkin bo'lgan narsa faqat birgalikda mumkin, b) hamma uchun bir xil o'quv materialiga bog'liqlik (topshiriqlar, mashqlar, matn, laboratoriya ishlari va boshqalar), c) jihozlarga bog'liqlik (varaq, ba'zi markerlar, qaychi va boshqalar), guruh a'zolari o'rtasida taqsimlanadi, d) butun guruh uchun bitta mukofotga bog'liqlik — yoki hamma teng mukofotlanadi yoki hech kim mukofotlanmaydi [2, 42]. Olimlarning ta'kidlashicha ushbu qoidalarga rioya qilgan holda ishlash o'quv jarayonida samarali natijaga erishni kafolatlaydi.

Hamkorlikda o'qitishni amalga oshirish strategiyalari

1	O'quv natijalarini aniqlash	Har bir hamkorlikdagi faoliyat uchun aniq o'quv maqsadlarini belgilash, shunda talabalar o'zlarining guruh ishlarining maqsadi va istalgan natijalarini tushunishadi.
2	Rol va mas'uliyat	Teng ishtirok etish va javobgarlikni ta'minlash uchun har bir guruh a'zosiga aniq rol va mas'uliyatni belgilash. Bu lider, yozuvchi, vaqt hisoblagichi kabi rollarni o'z ichiga olishi mumkin.
3	Tuzilmaviy faoliyat	Faol ishtirokni rag'batlantiradigan va har bir talaba guruhning o'quv jarayoniga faol hissa qo'shishini ta'minlaydigan fikr almashish, boshqotirmalar va muammoni hal qilish vazifalari kabi tuzilgan topshiriqlar.
4	Guruhn shakllantirish samarali	Har bir guruhning tarkibini diqqat bilan ko'rib chiqish, turli ijodiy qobiliyatlar, o'rganish uslublari va shaxsiyatlar o'rtasidagi muvozanatni topish. Bu jamoa a'zolari o'rtasida boy fikr almashish, hamkorlik va qo'llab-quvvatlash imkonini

		beradi.
5	Fikrlash va fikr-mulohazalarni rag'batlantirish	Talabalarni hamkorlikdagi o'rganish tajribalari haqida fikr yuritishga va tengdoshlariga fikr bildirishga undash. Ushbu reflektiv amaliyat o'z-o'zini hurmat qilishni va jamoada ishlash ko'nikmalarini doimiy ravishda yaxshilashga yordam beradi.

Hamkorlikda o'qitishning afzalliklari quyidagicha


1. Talabalar munozaralarda faol ishtirok etadigan qiziqarli sinf muhitini yaratadi. Bunday ishtirok motivatsiyaning oshishiga, ishtiyoyqning yuqori darajasiga va mavzu bilan chuqurroq bog'lanishga olib keladi.

2. Guruhning turli a'zolari bilan munozara va o'zaro muloqot orqali talabalar turli nuqtai nazar va kreativ g'oyalarga ega bo'ladilar. Birgalikda o'rganish ma'lumotni tanqidiy tahlil qilishga va mavzu bo'yicha yaxlit tushunchani rivojlantirishga, keng qamrovli bilim bazasini yaratishga undaydi.

3. Guruhlarda ishlash talabalarning o'z fikrlarini mustaqil izchil ifoda etishi, boshqalarni faol tinglashi natijasida samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'z bilimlarini baham ko'rish va guruhda konsensus yaratish orqali talabalar samarali hamkorlik uchun zarur bo'lgan muhim muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

4. Hamkorlikda o'rganish tanqidiy fikrlashni rag'batlantiradi, chunki talabalar muammoni yechish mashqlari bilan shug'ullanadilar, murakkab senariylarni tahlil Guruh ichida fikr almashish ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi, tahliliy ko'nikmalarni charxlaydi va muqobil yechimlarni izlashni osonlashtiradi.

Ushbu o'quv muhitida talabalar shaxslararo munosabatlarni mustahkamlashni va tengdoshlariga nisbatan hamdardlikni rivojlantirishni o'rganadilar. Bu jamiyat tuyg'usini rivojlantiradi, o'ziga ishonchni oshiradi va intellektual o'sishni va hissiy farovonlikni qo'llab-quvvatlaydigan ijobiy sinf madaniyatini targ'ib qiladi.



Hamkorlikda guruhlarda ishlash strukturası

Yuqorida tasvirlangan jarayon guruh maqsadlari ta'lif natijalarini yaxshilash uchun qanday ishlashi mumkinligini ko'rsatadi. Barcha guruhni individual o'rganish asosida guruh maqsadlarini ta'minlash, a'zolar talabalarni tengdoshlari bilan shug'ullanishga undash orqali kognitiv jarayonlarga bevosita ta'sir qilishi mumkin. Guruh a'zolari o'rtasida g'amxo'rlik va g'amxo'rlikni oshirish, bir-birining muvaffaqiyati uchun mas'uliyatni his qilish hamda talabalarni jarayonlarda ijodiy ishtirok etishga undaydi.

XULOSA

Hamkorlikdagi ta'lif — bu talabalarning faolligini, tanqidiy kreativ fikrlashni va shaxslararo munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradigan interaktiv ta'lif usuli. Talabalarning jamoaviy bilimlari va jamoaviy ishidan foydalanish orqali o'qituvchilar ularning auditoriyadan tashqaridagi dunyoning hamkorlik tabiatiga tayyorlaydigan dinamik o'quv muhitini yaratishi mumkin. Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari — dialogik kognitiv ijodiy faoliyat haqidagi g'oyalar shakllanishining asosiy mexanizmi bo'lib, o'zaro qayta qurish jarayonidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5847-sod Farmoni.
2. Джонсон Д., Джонсон Р., Джонсон-Холубек Э. Методы обучения. Обучение в сотрудничестве. – СПб.: Экономическая школа, 2001. – 256 с
3. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / O'quv-metodik qo'llanma. Toshkent, Nizomiy TDPU huzuridagi PKQT tarmoq markazi, 2015. – 120 b.
4. Roziqov O., Oq'ayev C., Mahmudov M., Adizov B. Ta'lim texnologiyasi / Risola. Toshkent.: "O'qituvchi" nashriyoti, 1999. – 72 b.
5. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiylar / O'quv qo'llanma, Toshkent.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi "Fan" nashriyoti, 2006. – 266 b.
6. Shoyimova Sh.S., Xoshimova M.K., Mirzayeva Sh.R., Qo'ziboyeva M.M. Ta'lim texnologiyalari / Darslik, Toshkent.: "IJOD PRINT" nashriyoti, 2020. — 310 b.